

Xorijiy ilmiy stajirovkalar tanlovlarida ishtirok etish tartibi

Ilmiy stajirovka nima?

Ilmiy stajirovka — bu yosh olimlarning xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda 1 oydan 6 oygacha bo'lgan qisqa muddat davomida ilmiy faoliyat olib borish jarayoni.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son Qarori bilan tasdiqlangan “Yosh olimlarni yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to'g'risida”gi Nizom asosida tashkil etiladi.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tanlovlar tashkil etilib, saralab olingan yosh olimlar Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

Kimlar ishtirok etishi mumkin?

- Mutaxassislik fani va xorijiy tillarni o'zining ish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan darajada biladigan, yoshi 20 dan 40 gacha bo'lgan
- Ilmiy va innovatsion faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan shaxslarga beriladigan shaxsiy identifikatsiya raqamiga ega bo'lgan ilmiy, ilmiy-pedagogik va texnik-muhandis shu bilan birga, stajyor-tadqiqotchi, doktorant, mustaqil izlanuvchi va ta'lim oluvchi sifatida faoliyat yuritayotgan talabgorlar

Tanlov turlari

Ochiq tanlov

- Yosh olim xorijiy tashkilotni mustaqil tanlaydi
- Xorijiy tashkilot tomonidan taklifnoma xati va stajirovka dasturi yakka tartibda olinadi

Maqsadli tanlov

- Agentlik va xorijiy tashkilot o'rtasida hamkorlik kelishuvi doirasida tashkil etiladi
- Taklifnoma xati va stajirovka dasturi Agentlik tomonidan taqdim etiladi

Tanlovda ishtirok etish tartibi

Xorijiy ilmiy stajirovkalarni tashkil etish yagona elektron tizimi

internship.ilmiy.uz

Innovatsion rivojlanish agentligi

Bosh sahifaTanlovlarYangiliklarAloqaKirish

Orqaga



25-dekabr, 2025

3244

Turkiyaning Balikesir universitetida qurilish materiallari yo'nalishida ilmiy stajirovka Lorem...

Boshlanish sanasi:
25-dekabr, 2025

Tugash sanasi:
28-fevral, 2026

1-dekabr, 2025

4961

JENEVA XALQARO INSTITUTIDA STAJIROVKA O'TANG

1-dekabr, 2025

4961

Shveysariyaning Jeneva xalqaro institutida stajirovka Lorem ipsum dolor sit amet...

Boshlanish sanasi:
1-dekabr, 2025

Tugash sanasi:
16-fevral, 2026

1-dekabr, 2025

2981

AQSHDA STAJIROVKA O'TANG

1-dekabr, 2025

2981

AQShning Dallas shahridagi Texas universitetida qisqa muddatli ilmiy stajirovka Lorem ipsum dol...

Boshlanish sanasi:
1-dekabr, 2025

Tugash sanasi:
16-fevral, 2026

1-dekabr, 2025

1327

AREEODA STAJIROVKA O'TANG

1-dekabr, 2025

1327

Eron Islom Respublikasining Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari, ta'lim va kengaytirish tashkiloti...

Boshlanish sanasi:
1-dekabr, 2025

Tugash sanasi:
16-fevral, 2026

1-dekabr, 2025

2688

QOZON FEDERAL UNIVERSITETIDA STAJIROVKA O'TANG

1-dekabr, 2025

2688

Tatariston Respublikasining Qozon Federal universitetiga Innovatsion rivojlanish agentligi...

Boshlanish sanasi:
1-dekabr, 2025

Tugash sanasi:
16-fevral, 2026

1-dekabr, 2025

1036

ROSSIYA FEDERATSIYASIDA STAJIROVKA O'TANG

1-dekabr, 2025

1036

Rossiya Federatsiyasining "Xalqaro kvant optikasi va kvant texnologiyalari" tashkilotiga Innovatsio...

Boshlanish sanasi:
1-dekabr, 2025

Tugash sanasi:
16-fevral, 2026



Hujjatlar to'plami

- Ma'lumotnoma
- Stajirovka rejasi;
- Stajirovkaning maqsadga muvofiqligi, asosiy vazifalari, kutilayotgan natijalari hamda ilmiy faoliyatiga ta'sirini asoslovchi tahliliy ma'lumotlar bayon etilgan asosnoma;
- Ilmiy darajasi (*fan nomzodi, PhD va fan doktori*), ilmiy unvonini (*katta ilmiy xodim, dotsent, professor*) tasdiqlovchi diplom(lar)ning nusxasi, agar mavjud bo'lsa;
- Xorijiy tillardan bilim darajasini belgilovchi amaldagi milliy yoki xalqaro sertifikat (*Milliy kvalifikatsiya sertifikati, IELTS, TOEFL va shu kabilar, muddati o'tgan hujjatlar bundan mustasno*), agar mavjud bo'lsa.
- Yakka tartibdagi stajirovkalar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun nomzod tomonidan qo'shimcha ravishda qabul qiluvchi tashkilotning taklifnoma xati va dastlabki kelishuv bo'yicha hujjat nusxasi hamda stajirovka davrida amalga oshiriladigan ishlar dasturi;

Buyurtmachi tashkilot tomonidan tasdiqlanishi

- Yoʻllanma xat;
- Kollegial organ (*ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqa shakllarda boʻlishi mumkin*) qaroridan koʻchirma;
- Tasdiqlangan stajirovka rejasi;
- Tasdiqlangan amalga oshiriladigan ishlar dasturi.

Saralash jarayoni

1-bosqich

- Maxsus Ekspert guruhi tomonidan hujjatlar to'liqligi va Nizom talablariga muvofiqligi bo'yicha saralab olinadi.

2-bosqich

- Saralab olingan yosh olimlar Maxsus ekspert guruhiga stajirovka rejasi va amalga oshiriladigan ishlari to'g'risida xorijiy tilda taqdimot o'tkazishga taklif etiladi.

Baholash mezonlari

- **Xorijiy tillarni** o'zining ish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan darajada bilishi va qo'llay olishi - 30 ballgacha;
- Stajirovka **maqsad va vazifalarining** dolzarbligi hamda ilmiy yoki iqtisodiy samaradorligi - 40 ballgacha;
- Stajirovkaning oliy ta'lim va/yoki ilmiy tashkilotning **yo'nalishlari, ehtiyojlari va talablariga mosligi** - 30 ballgacha.

Savollar?



internship.ilmiy.uz